



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQLASHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
Bozorova Madina Raxmat qizi	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	294
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	299
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	304
Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	311
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O'RNI.....	315
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	322
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	326
Abdullo Sohibov	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH	331
Davronov Sanjar Ziyotovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
Ashrapova Noilaxon Niyazxanovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBASI TAHLILI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	340
Ochilov Baxtiyor Muminjonovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING.....	346
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin ugli	
SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O'TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	351
Astanakulov Olim Tashtemirovich	
Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa)	
Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun)	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI FONIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	357
Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich	
INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	362
Aziz Kurbanovich Abdullaev	
Sarvarbek Allayev Erkin ugli	
Shavkat Asrolovich Ruziev	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	369
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA).....	373
Barotov Baxtiyor Vaxobovich	
CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI	377
Muxitdinova Kamola Alisherovna	
TRANSPORT LOGISTIKASIDA TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASH: O'ZBEKISTON VA AQSH TAJRIBASI ASOSIDA TAQQOSIY TAHLIL.....	381
Jabborov Islom Xusan o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BARQAROR BOSHQARISH.....	385
Xayrullayev Shaxram Yunus o'g'li	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SERVIS KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATI BOSHQARUVINING ZAMONAVIY MODELLARI	392
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich BIZNES JARAYONLARI MONITORINGI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI.....	398
Dadajonova Madina Ravshan qizi SIRKULAR IQTISODIYOT KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNI BAHOLASH KO'RSATKICHLARINI (INDIKATORLARINI) SHAKLLANTIRISH.....	403
Sharifxo'jayeva Xonzodaxon A'lo qizi TURIZM QISHLOQLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI TIZIMI	408
Xudaynazarova Dilorom NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV VA BOSHQARUV HISOB TIZIMINING AMALIYOTI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	416
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich DAVLAT XARIDLARI JARAYONIDA XAVFLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISH, TASNIFLASH VA RISKKA ASOSLANGAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH	421
Meliboyev Askar Eshmuratovich DEVELOPING GARMENT MANUFACTURING STRATEGY IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION	426
Mahbuba Rahmonova Feruza Mansurovna Ollokulova QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	430
Bakhit Mambetnazarov Atabek Tureev SOLIQ TUSHUMLARI VA MAJBURIY AJRATMALARNING DAVLAT MOLIYASIDAGI O'RNI: 2020-2025 YILLAR TAHLILI VA ISTIQBOLI.....	434
Olimov Shukurulla Dilshodjon o'g'li ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА	439
Джураева Гузаль Шавкатовна XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	447
Mamirov Zamir Uzoq o'g'li XORIJYIY TO'G'RIDAN-TO'G'RI INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	453
Xatamov Nurbek Ochildiyevich DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI HISOB VA TAHLILINING AMALDAGI TIZIMI	458
Ostonokulov Azamat Abdurkarimovich Tursinbaev Gafur Jolmurzaevich MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	464
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich СТРАХОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ СНИЖЕНИЯ ФИНАНСОВЫХ ПОТЕРЬ ОТ НЕПРЕДВИДЕННЫХ РИСКОВ, ОКАЗЫВАЮЩИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ ПРИБЫЛЬ (ДОХОД).....	470
Азимжон Мелиев Муродулло угли A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS	475
Wang Biao	



SANOAT KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	481
Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li	



SANOAT KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti doktoranti
E-mail: shohruhbahodirov1994@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8739-6413

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda innovatsion salohiyatning moliyaviy, kadrlar, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va tashqi muhit komponentlari tizimlashtirildi. Natijada ko'rsatkichlar tizimi, integral baholash va ekspert baholash algoritmlariga asoslangan takomillashtirilgan metodik yondashuv taklif etildi. Mazkur yondashuv sanoat korxonasining innovatsion salohiyat darajasini aniqlash, zaif bo'g'inlarni baholash va boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion salohiyat, sanoat korxonasi, baholash metodikasi, ko'rsatkichlar tizimi, integral baholash, ekspert baholash, innovatsion faoliyat, boshqaruv qarorlari, monitoring.

Аннотация. В статье исследуются вопросы совершенствования методики оценки инновационного потенциала промышленных предприятий. В ходе исследования систематизированы финансовые, кадровые, научно-исследовательские, организационно-управленческие, производственно-технологические, маркетинговые и внешнесредовые компоненты инновационного потенциала. В результате предложен усовершенствованный методический подход, основанный на системе показателей, алгоритмах интегральной и экспертной оценки. Предложенный подход позволяет определить уровень инновационного потенциала предприятия, выявить слабые звенья и обосновать управленческие решения.

Ключевые слова: инновационный потенциал, промышленное предприятие, методика оценки, система показателей, интегральная оценка, экспертная оценка, инновационная деятельность, управленческие решения, мониторинг.

Annotation. This article examines the issues related to improving the methodology for assessing the innovation potential of industrial enterprises. The study systematizes the financial, human resource, research, organizational and managerial, production and technological, marketing, and external environmental components of innovation potential. As a result, an improved methodological approach is proposed, based on a system of indicators as well as integral and expert evaluation algorithms. The proposed approach makes it possible to determine the level of innovation potential of an enterprise, identify weak points, and substantiate managerial decisions.

Keywords: innovation potential, industrial enterprise, assessment methodology, system of indicators, integral evaluation, expert evaluation, innovation activity, managerial decisions, monitoring.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida texnologik yangilanishlar sur'atining jadallashuvi, raqobat muhitining keskinlashuvi va sanoat ishlab chiqarishi jarayonlarining tobora murakkablashib borishi korxonalarining innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini obyektiv baholash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantirmoqda. Bozor konyunkturasining tez o'zgarishi, texnologik almashinuvlarning qisqa siklga ega bo'lishi hamda resurslardan foydalanish samaradorligiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi sharoitida korxonaning innovatsion salohiyatini aniq baholamasdan turib uning uzoq muddatli innovatsion strategiyasini ishlab chiqish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va boshqaruv qarorlarining natijadorligini ta'minlash murakkablashadi. Shu bois sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion salohiyat korxonaning faqat mavjud moddiy, moliyaviy yoki mehnat resurslari yig'indisi bilan cheklanmaydi. U, eng avvalo, ushbu resurslarni innovatsion maqsadlarga safarbar etish, yangi g'oya va ish-



lanmalarni amaliyotga joriy qilish, ularni tijoratlashtirish hamda tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Shu jihatdan innovatsion salohiyatni baholash bir yoqlama yoki tor ko'rsatkichlar tizimi asosida emas, balki moliyaviy, kadrlar, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va tashqi muhit omillarini qamrab oluvchi kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini ko'p omilli tizim sifatida tahlil qilish va korxonaning real holatini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili innovatsion salohiyatni baholash bo'yicha yagona va universal metodik yondashuv hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar ekspert baholash usullariga tayangan holda alohida komponentlarni ball asosida baholashni taklif etgan bo'lsalar, boshqalari matematik-statistik modellar, jumladan ishlab chiqarish funksiyalariga asoslangan yondashuvlarni ilgari suradilar. Yana bir qator ishlarda innovatsion rivojlanishning o'sish sur'ati, intensivligi va samaradorligi ko'rsatkichlari ustuvor qo'yiladi. Biroq ushbu yondashuvlarning sezilarli qismida ko'rsatkichlar tarkibini tanlash, ularning vazn koeffitsiyentlarini asoslash, baholash algoritmining izchilligini ta'minlash hamda olingan natijalarni amaliy boshqaruv qarorlariga bog'lash masalalari yetarli darajada hal etilmagan. Natijada baholash natijalarining obyektivligi, qiyosiyli va amaliy qo'llanish imkoniyati cheklanib qolmoqda.

Mazkur holat sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi. Xususan, bunday metodika, bir tomondan, innovatsion salohiyatning asosiy tarkibiy qismlarini to'liq qamrab olishi, ikkinchi tomondan esa baholash natijalarini boshqaruv amaliyoti bilan bog'lay olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, maqolada sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini baholashning takomillashtirilgan metodik yondashuvini ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu yondashuv ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, ularni normallashtirish, bloklar bo'yicha umumlashtirilgan indekslarni aniqlash, integral ko'rsatkichni hisoblash va ekspert baholash natijalari bilan uyg'unlashtirish orqali korxonaning innovatsion imkoniyatlarini kompleks baholash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida talqin etiladi. Fedulova innovatsion salohiyatni korxonaning innovatsion maqsadlarga erishishga tayyorlik darajasi sifatida izohlasa, Burkynskiy uni innovatsion faoliyat uchun zarur bo'lgan kadrlar, ilmiy, moddiy, intellektual, axborot va moliyaviy resurslar majmui sifatida talqin qiladi. Nosova esa innovatsion salohiyatni yangi bilimlarni yaratish va tijoratlashtirish imkonini beruvchi ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish resurslari tizimi sifatida baholaydi. Karintseva va Matvieiev mazkur tushunchani iqtisodiy tizimning innovatsion rivojlanish qobiliyatini ifodalovchi kompleks tavsif sifatida asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham innovatsion salohiyat ko'proq resurslar kombinatsiyasi va ularning samarali qo'llanishi bilan bog'lanadi. Jumladan, Haffer innovatsion salohiyatni innovatsiyalarni ishlab chiqish va bozorda joriy etish uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy resurslar uyg'unligi sifatida ko'rsa, Bialoń va Zastempowski uni ko'p komponentli tizim sifatida yoritadi. Kashpur tomonidan umumlashtirilgan yondashuvda innovatsion salohiyatning moliyaviy, kadrlar, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va tashqi muhit komponentlarini ajratish baholashning kompleksligini ta'minlashi ko'rsatilgan.

Innovatsion salohiyatni baholash metodikasi bo'yicha ham yagona qarash mavjud emas. Ayrim mualliflar ekspert baholash usuliga tayanadi, boshqalari matematik-statistik yondashuvlar, jumladan Cobb–Douglas funksiyasidan foydalanadi, yana bir guruh tadqiqotchilar innovatsion rivojlanishning o'sish sur'ati, intensivligi va samaradorligi ko'rsatkichlariga asoslanadi. Biroq Kashpur tahliliga ko'ra, ushbu metodikalarning ko'pchiligida baholash algoritmi, ko'rsatkichlar tarkibi va vazn koeffitsiyentlarini asoslash masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa natijalarning aniqligi va amaliy qo'llanishini cheklaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion salohiyatning tarkibiy tuzilmasi masalasida ham turli qarashlar mavjud. Ayrim mualliflar uni yagona ilmiy-texnik majmua sifatida talqin qilsa, boshqalar alohida, ba'zan o'zaro sust bog'langan komponentlar yig'indisi sifatida yondashadi. Kashpur tomonidan umumlashtirilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, zamonaviy tadqiqotlarda innovatsion salohiyatning moliyaviy, kadrlar, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va tashqi muhit komponentlarini ajratish baholashning kompleksligini ta'minlash nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv innovatsion salohiyatni faqat resurslar mavjudligi orqali emas, balki ularning o'zaro ta'siri, moslashuvchanligi va boshqaruv natijadorligi bilan birgalikda baholash imkonini beradi.

Innovatsion salohiyatni baholash metodikasi borasidagi ilmiy ishlarda ham yagona qarash shakllanmagan. Xususan, ayrim tadqiqotchilar, jumladan G. Otl'yanska va V. Orlova, ekspert baholash usuliga tayanib, innovatsion salohiyat elementlarini alohida baholash va keyinchalik integral ko'rsatkichga keltirishni taklif qilgan



bo'lsalar-da, mazkur yondashuvlarda ko'pincha mezonlar va hisoblash algoritmlarining yetarli aniqlikda ishlab chiqilmagani kuzatiladi. I. Karapiychyk matematik-statistik yondashuvni, xususan Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanishni ilgari suradi, biroq bu usulning hisob-kitoblari murakkab bo'lib, ayrim hollarda iqtisodiy mazmuni aniq bo'lmagan natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. N. Chuhrai innovatsion rivojlanishning o'sish sur'ati, intensivligi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga e'tibor qaratadi, ammo bu yondashuv ma'lum vaqt kesimidagi innovatsion salohiyat darajasini to'liq aks ettirishda cheklangan. I. Novikova esa innovatsion resurslar va ularning katalizatorlarini tizimli baholashga asoslangan usulni taklif etadi, biroq unda ham vazn koeffitsiyentlari va baholash parametrlarini aniqlash algoritmi yetarli darajada ochib berilmagan. Mazkur yondashuvlarda baholashning kompleksligini oshirish ahamiyatli bo'lsa-da, uni sanoat korxonalarini faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va amaliy boshqaruv ehtiyojlariga yanada moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini baholashda ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan integral baholash va ekspert baholash usullarini uyg'un qo'llash eng maqbul metodik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Innovatsion salohiyatning moliyaviy, kadrlar, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va tashqi muhit komponentlari asosida baholanishi uning kompleks xususiyatini to'liqroq aks ettirish imkonini beradi.

Shu asosda innovatsion salohiyatni baholash uchun 31 ta ko'rsatkichdan iborat tizim shakllantirilgan bo'lib, mazkur indikatorlar resurs, jarayon va natijaviy jihatlarni birgalikda qamrab oladi. Ularni iqtisodiy mazmuniga ko'ra bloklar kesimida guruhlash baholashning analitik imkoniyatini kengaytiradi, natijalarni izchil sharhlashga hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Shu asosda sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini kompleks baholashga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan blokli ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi. Uning tarkibi va baholashdagi ahamiyati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini baholashning takomillashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi

Baholash bloki	Asosiy ko'rsatkichlar	Baholashdagi ahamiyati
Moliyaviy blok	Innovatsion tadqiqot xarajatlari ulushi; innovatsion rivojlantirish byudjeti; inson kapitaliga investitsiyalar ulushi; innovatsiyalar rentabelligi	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minoti va iqtisodiy natijadorligini ifodalaydi
Kadrlar bloki	ITTKlga jalb etilgan xodimlar ulushi; xodimlar malakasi indeksi; ilmiy xodimlar ulushi; kadrlar almashinuvi indeksi	Innovatsion salohiyatning inson kapitali va kompetensiya bazasini baholaydi
Ilmiy-tadqiqot bloki	Innovatsion mahsulotlar ulushi; patentlar va ixtirolar soni; ilmiy muassasalar bilan hamkorlik darajasi; eksperimental tadqiqotlar samarasi; IT infratuzilma darajasi	Yangi bilimlar yaratish va amaliyotga joriy etish imkoniyatini aks ettiradi
Tashkiliy-boshqaruv bloki	Strategik rejalashtirish indeksi; sifat menejmenti; bo'linmalararo hamkorlik; innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish	Innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqaruvning institutsional tayanchini baholaydi
Ishlab chiqarish-texnologik blok	Mehnat unumdorligi; asosiy fondlarni yangilash; avtomatlashtirish darajasi; ilg'or texnologiyalar ulushi; yashil texnologiyalar indeksi; mahsulot sifati	Innovatsion salohiyatning texnologik va ishlab chiqarish imkoniyatlarini tavsiflaydi
Marketing bloki	Marketing innovatsiyalari darajasi; marketing innovatsiyalariga xarajatlar ulushi; bozor o'zgarishlariga moslashuv; yangi savdo kanallari; bozor tadqiqotlari xarajatlari	Innovatsion mahsulotni bozorga olib chiqish va tijoratlashtirish imkoniyatini ko'rsatadi
Tashqi muhit bloki	Investitsion muhit; akademik institutlar bilan hamkorlik; huquqiy-institutsional sharoit; infratuzilma rivojlanganligi; makroiqtisodiy omillar	Innovatsion salohiyatga tashqi omillar ta'sirini baholaydi

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion salohiyatni baholash faqat resurslarning mavjudligini emas, balki ularning boshqaruv, texnologik yangilanish va bozor natijalariga aylanish darajasini ham qamrab olishi zarur. Shu bois baholash tizimiga moliyaviy va kadrlar bloklari bilan bir qatorda tashkiliy-boshqaruv, marketing hamda tashqi muhit bloklarining kiritilishi metodikaning kompleksligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.



Biroq ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida ifodalanganligi sababli ularni yagona baholash maydoniga keltirish talab etiladi. Shu maqsadda tadqiqotda ko'rsatkichlarni normallashtirish usuli qo'llanildi. Normallashtirish natijasida indikatorlar o'zaro taqqoslanadigan shaklga keltirilib, keyingi bosqichda bloklar bo'yicha umumlashtirilgan indekslar hamda integral ko'rsatkichni aniqlash imkoniyati yaratildi. Mazkur jarayon quyidagi formula asosida ifodalanadi:

Ko'rsatkichlarni maksimal minimal normallashtirish formulasi

$$y_I = \frac{x_I - x_{min}}{x_{max} - x_{min}}$$

bu yerda:

y_I - normallashtirilgan ko'rsatkich

x_I - joriy ko'rsatkich qiymati

x_{max} - ko'rsatkichning maksimal qiymati.

x_{min} - ko'rsatkichning minimal qiymati.

Mazkur formula ko'rsatkichlarni 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqqa keltirish orqali turli o'lchov birliklarida ifodalangan indikatorlarni yagona mezon asosida taqqoslash imkonini beradi. Shu tariqa, ko'rsatkichlarni o'lchovsiz shaklga o'tkazish keyingi integral baholashning zarur metodik sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Normallashtirilgan ko'rsatkichlar asosida har bir blok bo'yicha umumlashtirilgan indeks hisoblanadi. Mazkur indeks blok tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlarning nisbiy ahamiyatini hisobga olgan holda innovatsion salohiyatning alohida komponentlarini kompleks baholash imkonini beradi. Blok bo'yicha umumlashtirilgan indeks quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Blok bo'yicha umumlashtirilgan indeksni hisoblash formulasi

$$Y_j = \sum_{i=1}^m w_i \cdot y_i$$

bu yerda

Y_j - j-blok bo'yicha umumlashtirilgan indeks;

w_i - i-ko'rsatkichning vazni;

y_i - normallashtirilgan ko'rsatkich;

Mazkur yondashuv blok tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlarning nisbiy ahamiyatini hisobga olish orqali innovatsion salohiyat komponentlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Keyingi bosqichda har bir blok bo'yicha olingan umumlashtirilgan indekslar vazn koeffitsiyentlari asosida yagona integral ko'rsatkichga birlashtiriladi. Integral baholash natijalarini mazmunan talqin qilish maqsadida innovatsion salohiyat darajalarining quyidagi shkalasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini integral baholash darajalari

Integral ko'rsatkich oralig'i	Baholash darajasi	Tavsif
0,00 – 0,25	Kritik daraja	Innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish imkoniyatlari juda past, salohiyat yetarli darajada shakllanmagan.
0,25 – 0,55	Past daraja	Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun ayrim imkoniyatlar mavjud, biroq ular cheklangan.
0,55 – 0,75	O'rtacha daraja	Innovatsion faoliyatni qoniqarli darajada amalga oshirish imkoniyati mavjud, ammo ayrim komponentlarni takomillashtirish zarur.
0,75 – 1,00	Yuqori daraja	Innovatsion rivojlanishni faol amalga oshirish uchun yetarli imkoniyatlar shakllangan.



2-jadvalda keltirilgan darajalar shkalasi integral ko'rsatkich asosida korxonaning innovatsion salohiyat holatini baholash va uni mazmunan talqin qilish imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkich nafaqat innovatsion salohiyatning joriy darajasini aks ettiradi, balki korxonaning keyingi innovatsion rivojlanish strategiyasini tanlash uchun ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, kritik va past darajadagi korxonalarda resurs ta'minoti hamda boshqaruv tizimini mustahkamlash ustuvor ahamiyat kasb etsa, o'rtacha va yuqori darajadagi korxonalarda innovatsion faoliyatni kengaytirish, uning tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, innovatsion salohiyatni baholash faqat integral hisob-kitoblar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Baholash natijalarining ishonchligini oshirish maqsadida ekspert yondashuvidan ham foydalanish zarur. Mazkur yondashuv ekspertlar guruhini shakllantirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, ekspert fikrlarini yig'ish va ularni umumlashtirish bosqichlarini qamrab oladi.

Shunga ko'ra, ekspert baholash bo'yicha o'rtacha ball quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Ekspert baholash bo'yicha o'rtacha ballni aniqlash formulasi

$$I_e = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n E_i$$

I_e - ekspert baholash bo'yicha o'rtacha integral ball;

E_i - i-komponent bo'yicha ekspert bahosi;

n - baholanayotgan komponentlar soni;

Ekspert usulining amaliy ahamiyati shundaki, u innovatsion salohiyat komponentlarining rivojlanganlik darajasini sifatijihatdan baholash, integral baholash natijalarini mazmunan to'ldirish hamda boshqaruv nuqtayi nazaridan aniqlashtirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuvda 1 dan 10 gacha bo'lgan shkala qo'llanilib, quyi ballar komponentning sust rivojlanganligini, yuqori ballar esa uning yetarli darajada shakllanganligini ifodalaydi. Ekspert baholash shkalasi va natijalarni talqin qilish mezonlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval
Ekspert baholash shkalasi va natijalarni talqin qilish mezonlari

Ball oralig'i	Talqin
1–2 ball	Komponent mutlaqo mavjud emas yoki juda past darajada rivojlangan
3–4 ball	Komponent past darajada rivojlangan, jiddiy takomillashtirish talab etiladi
5–6 ball	Komponent o'rtacha darajada rivojlangan, yaxshilash imkoniyati mavjud
7–8 ball	Komponent yuqori darajada rivojlangan, ayrim kamchiliklar mavjud
9–10 ball	Komponent eng yuqori darajada rivojlangan, sezilarli takomillashtirish talab etilmaydi

Integral hisob-kitoblar va ekspert baholash natijalarini birgalikda qo'llash innovatsion salohiyatni baholashning takomillashtirilgan algoritmini shakllantiradi. Mazkur algoritmi korxonaning joriy innovatsion holatini aniqlash, baholash natijalarini aniqlashtirish va ular asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodikaning tarkibiy bosqichlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda innovatsion salohiyatni baholashning izchil algoritmik ketma-ketligi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini baholashning takomillashtirilgan algoritmi

1-rasmda ko'rsatilganidek, taklif etilayotgan metodika statistik, analitik va ekspert yondashuvlarini yagona baholash tizimida birlashtiradi. Bunda normallashtirish va indekslash baholashning hisob-kitob asosini ta'minlasa, ekspert baholash innovatsion salohiyat komponentlarining mazmuniy ahamiyatini boshqaruv nuqtayi nazaridan chuqurroq ochib beradi.

Shu bois ekspert yondashuvi integral baholash natijalarini to'ldiruvchi va sifatli jihatdan aniqlashtiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Mazkur yondashuv korxonaning innovatsion holatini ishonchliroq baholash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini baholashda alohida ko'rsatkichlarga tayangan yondashuvlar korxonaning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini to'liq aks ettirib bera olmasligini ko'rsatdi. Innovatsion salohiyatni moliyaviy, kadrlar, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va tashqi muhit bloklari kesimida baholash esa uning mazmunini kompleksroq yoritish, ichki imkoniyatlar bilan tashqi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda korxonaning innovatsion holatini aniqroq tavsiflash imkonini beradi.

O'tkazilgan tahlil asosida sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini baholashning takomillashtirilgan blokli metodik yondashuvi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv ko'rsatkichlarni tizimlashtirish, ularni normallashtirish, har bir blok bo'yicha umumlashtirilgan indekslarni aniqlash, integral ko'rsatkichni hisoblash hamda ekspert baholash asosida natijalarni sifatli jihatdan aniqlashtirish bosqichlarini qamrab oladi. Natijada innovatsion salohiyatning nafaqat umumiy darajasini, balki uning tarkibiy komponentlari bo'yicha kuchli va zaif tomonlarini ham aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa baholash natijalarini korxonaning innovatsion rivojlanish strategiyasini belgilash, resurslarni ustuvor yo'nalishlarga safarbar etish va boshqaruv qarorlarini asoslash bilan bevosita bog'lash imkonini beradi.



Taklif etilgan yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni diagnostika qilish, monitoringini yuritish, muammoli bo'g'inlarni aniqlash va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, baholashning blokli tuzilishi korxonaning qaysi tarkibiy qismlarida rivojlanish zaxiralari mavjudligini ko'rsatib, boshqaruv choralarini manzilli ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, metodikaning amaliy qiymatini yanada oshirish uchun uni aniq sanoat korxonalarida ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazish, vazn koeffitsiyentlarini empirik jihatdan aniqlashtirish hamda tarmoq xususiyatlariga moslashtirish keyingi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karintseva, O. I., & Matvieiev, P. S. (2015). Theoretical aspects of defining the essence of the innovation potential. *Mechanism of Economic Regulation*, (Issue 25).
2. Fedulova, L. I. (2004). *Management of organizations*. Kyiv: Lybid.
3. Burkynskyi, B. V. (2007). *Innovation strategy in social and economic development of the region*. Odesa: IMEER NAS of Ukraine.
4. Nosova, O. V. (2013). *National economy: Study guide*. Kyiv: Tsentr uchbovoi literatury.
5. Radzivilo, I. V. (2012). *The mechanism of formation of the innovation potential of an industrial enterprise: Structuring and identification of elements*. *Efficient Economy*.
6. Haffer, M. (Ed.). (2004). *Innovation and pro-innovation needs of enterprises in the Kujawsko-Pomorskie region*. Toruń: Nicolaus Copernicus University.
7. Białoń, L. (Ed.). (2010). *Management of innovation activities*. Warsaw: Agencja Wydawnicza Placet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>